Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvga raqamli texnologiyalarni joriy qilishning ilmiy-nazariy asoslariga qarashlar.....	895
<b>Suyunov Dilmurod Xolmuradovich, Xabibullayeva Shirinxon Toxir qizi</b>	
Xalqaro standartlar asosida moliyaviy instrumentlar hisobini va auditini takomillashtirish.....	902
<b>Nuraliyev Behzod Baxtiyor o'g'li</b>	
Внедрение и адаптация исламского банкинга в экономике узбекистана.....	906
<b>Б.Б.Ахмаджанов, М. С.Шукруллаева, Д.Р.Сафаева</b>	
Kichik biznesning iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi ahamiyatini baholash uslubiyoti.....	911
<b>Ermatov Akmaljon Adxamovich</b>	
"Neyromarketing" asosida o'zbekiston turizm brendi tahlili.....	916
<b>Narziqulov Elbek Farxod o'g'li</b>	
Xalqaro bozorlarda zamonaviy marketing vositalaridan foydalanish.....	922
<b>Meliqulov Abdulhalil Norinovich</b>	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar va ularning bank aktivlariga ta'siri.....	929
<b>Saidov Bobir Jiyanboy o'g'li, Xolmuradov Musurmon Avlaqulovich</b>	
Сущность и причины международных денежных переводов.....	936
<b>Гимранова О. Б.</b>	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarda uzoq muddatli aktivlarning hisobi va auditini raqamli tvn texnologiyasi asosida takomillashtirish imkoniyatlari.....	941
<b>Rizakulov Abdurauf Abdimutalibovich</b>	
Biologik aktivlarning tushunchasi: iqtisodiy mazmuni va mohiyati.....	948
<b>Ziyayev Dilshodjon Salimjonovich</b>	
Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda iqtisodiy siyosatning roli: zamonaviy yondashuvlar.....	953
<b>Xodjayev Jamshid Abduxakimovich</b>	



Аналитический обзор: Развитие корпоративного управления в государственных корпорациях Узбекистана (2015–2025).....	958
<b>Мамараджабов Фарход Бахтиярович</b>	
O'zbekistonda transport infratuzilmasini rivojlantirish karidorlari .....	968
<b>Nazriyev Umidjon Baxrillayevich</b>	
Aylanma kapital bilan ishlashda samaradorlikni oshirish: korxonalar moliya siyosatini takomillashtirish yo'nalishlarida data science yondashuvlari .....	975
<b>Khoshimov Doniyor, Kungratov Ilmurod Kuzibay o'g'li</b>	
Davlat ulushi mavjud bo'lgan korxonalarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda raqamli transformatsiyaning roli .....	982
<b>Musurmonov Mehroj Murtaza o'g'li</b>	
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda tijorat banklariga moliyaviy resurslarni jalb qilish metodologiyasini takomillashtirish .....	988
<b>Hamrayev Obid Akhatovich</b>	
Tibbiy xizmatlarda raqamli texnologiyalarni joriy etish va uning samaradorlikka ta'siri (xorijiy tajriba).....	993
<b>Usmonova Vasila Botirovna</b>	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarish amaliyoti tahlili.....	997
<b>Akramova Nargiza Nutfillayevna</b>	
Using integrated marketing communications (IMC) in business management .....	1002
<b>Ziyayeva M.M.</b>	
Xorijiy mamlakatlarda tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish masalalari va ulardan o'zbekistonda foydalanish istiqbollari.....	1006
<b>Jaxongirov Ilimdorjon Jahongirjon o'g'li</b>	
Davlat budjetining ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi xarajatlarini samarali boshqarish yo'llari.....	1011
<b>Qo'ziyev Shodiyor Qilichboy o'g'li</b>	
Mintaqada xalq hunarmandchiligida klasterlash va ekologik logistika modeli asosida savdo tizimini shakllantirish.....	1015
<b>Norqobilova Feruza Abduhomidovna</b>	
To'g'ri xarajatlar usuli va to'liq yutuvchi xarajatlar usuli tizimlarining afzalliklari va farqli jihatlari amaliy misolda.....	1019
<b>Kholisa Kamoliddinovna Kuldosheva</b>	
Investitsiyalarni innovatsiyalarga yo'naltirish bo'yicha xorij tajribasi.....	1024
<b>Ayubov Ilyos Iloxomovich</b>	
Важность разработки стратегических программ развития страны.....	1028
<b>Каримова Нуржахон Олим кизи</b>	
Sanoat korxonasining raqamli transformatsiyasini baholash omillari va ko'rsatkichlari.....	1032
<b>Kudaybergenov Azamat Shamuratovich</b>	
Namangan viloyatida ijtimoiy turizm tadbirkorligini maqsadli boshqarish mexanizmi.....	1042
<b>Yunusova Sohiba Abdumamidovna</b>	
Evaluating the capital asset pricing model methodology in uzbekistan companies .....	1048
<b>Bunyod Usmonov</b>	
Aholini ish bilan bandligining yangi turlari va imkoniyatlari.....	1055
<b>A.B. Khayitov</b>	
Maktab direktorlarini qo'llab-quvvatlashda asosiy ustun amaliyotlar va o'zbekiston ta'lim tizimida ularni qo'llash imkoniyatlari.....	1059
<b>Mamura Tadjibayeva</b>	
Sun'iy intellekt asosida matematik masalalarni yechish algoritmlari .....	1064
<b>Oqnazarov To'liqin Jalilovich, Jo'rayev Mardon</b>	
Global ta'lim makonida milliy tarbiyani rivojlantirish istiqbollari .....	1071
<b>Sanaqulov Sardor Istamqulovich</b>	



Bank xizmatlari sifati va bank daromadlariga ta'sir etuvchi omil sifatida personal faoliyatining o'rni.....	1075
<b>Abdukaxarova Shoira Abduvahobovna</b>	
Fond bozori raqamli iqtisodiyotda investitsiyalarni shakllantirish manbai sifatida.....	1079
<b>Kamilova Sevara Anvarovna</b>	
O'zbekistonda toza suv va sanitariyaning inson hayoti hamda iqtisodiy farovonlikka ta'siri: BRM-6 doirasida tahlil.....	1085
<b>Xasanova Iroda Azizbek qizi</b>	
Increasing the effectiveness of using marketing communications in the tourism services market.....	1090
<b>Sobirjonov Asrorbek Sobitjon ugli</b>	
Davlat xaridlari sohasini takomillashtirish istiqbollari.....	1095
<b>Bazarov Nazirjon Sobirovich</b>	
Xarajatlarning strategik boshqaruv hisobini xo'jalik yurituvchi subyektlarda takomillashtirish.....	1103
<b>Xayitboeva Laylo Oybekovna</b>	
Davlat moliyaviy nazorati tizimida tashqi audit: rivojlangan mamlakatlar amaliyoti.....	1109
<b>Kuliyev Komil Shuxratovich, A.Astanovulov</b>	
Moliyaviy instrumentlarni hisobga olishda biznes modelning ahamiyati va amaliy yondashuvlar.....	1114
<b>Shanasirova Nodira Abdullayevna</b>	
Tijorat banklarida risklarni boshqarishning ustuvor yo'nalishlari.....	1118
<b>Tursunov Ilxom Toirovich</b>	
Chakana va ulgurji savdo korxonalarini faoliyatini rivojlanishiga tasir etuvchi omillarni baholash.....	1124
<b>Yuldasheva Gulmira</b>	
Managing tourism in fragile ecosystems: a case study approach.....	1128
<b>Dilmurod Nasimov, Shahrizoda Sirojiddinova</b>	
Tadbirkorlikni innovatsion-investitsion jihatdan baholash uslublari.....	1134
<b>Fayziyev Shavkat Shaxobidinovich</b>	
Зарубежный опыт развития инновационной деятельности предприятий энергетической отрасли.....	1141
<b>Бегмуллаев Отабек Ирисалиевич</b>	
Leveraging machine learning for big data analytics: a strategic overview.....	1148
<b>Ismaylov Timur Kuanishbaevich, Kurbanbaev Bakhtiyar Bakhitovich, Orazbayev Aqilbay Jenisbay uli</b>	
Ta'lim muassasalarida xarajatlar smetasi ijrosining dastlabki hisobini yuritilishi.....	1152
<b>Isoqulov Fazliddin Shamsiddin o'g'li</b>	
"Yengil sanoat korxonalarini qo'llab-quvvatlash choralari haqida".....	1158
<b>Otaxanova Umida Olim qizi</b>	
Investitsion-qurilish jaryonlarini samarali boshqarishning tashkiliy modellari va ulardan foydalanish usullari.....	1162
<b>Abduvaliyev Bekzod Muxiddin o'g'li</b>	
Qimmatli qog'ozlar bozorining mohiyati bo'yicha nazariy asoslar.....	1169
<b>Alimov Ilxomjon Ikromovich, Ikramov Akmalbek Ilxomjon o'g'li</b>	
Adoption of electric vehicles in logistics: opportunities and challenges in Uzbekistan.....	1175
<b>Oblokulova Parvina</b>	
Qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni jalb qilishning xorijiy mezonlari.....	1182
<b>Jurayev Abdug'affor Sofarovich, Nazirova Sayyora Baxtiyorovna</b>	
Raqamli transformatsiya jarayonlarining mehnat bozori konyukturasiga ta'siri.....	1187
<b>Fayzullayev Nurulla Baxromovich, Xudaybergenova Shukurjon Erkinovna</b>	
Milliy iqtisodiyotda internet xizmatlarini rivojlantirishning o'ziga xos yondashuvi.....	1194
<b>Niyozova Shohsanam Nuritdinovna</b>	



Auditorlik xulosalarini shakllantirishda auditorlik dalillariga qo'yiladigan talablar.....	1199
<b>Qo'shmatov Otaxon Qurbonaliyevich</b>	
Qishloq xo'jaligi sohasini takomillashtirishda investitsion loyihalarning iqtisodiy mohiyati.....	1203
<b>Israilova Xikoyat Musakulovna</b>	
Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari.....	1207
<b>Dadaboyeva Marguba Mamasoliyevna</b>	
Eko va agro-turizm raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqishning istiqbollari.....	1212
<b>Nurfayziyeva Mohinur Zayniddinovna</b>	
The importance of the cluster system in the agricultural field.....	1217
<b>Sherkulov Shokhrux Erkin o'g'li</b>	
Qishloq xo'jaligi sug'urtalash tizimini takomillashtirish yo'llari.....	1221
<b>Mardonov Mashrab Mansurovich, Muxtorov Abduxolik Abduxalimovich</b>	
Aksiz solig'i amaliyotining genezisi, milliy xususiyatlari, turlari va vazifalarining nazariy jihatlar.....	1225
<b>Shodiyev Olimjon Abduraxmonovich</b>	
Iqtisodiyotning real sektor tushunchasi, uning tarkibi va iqtisodiyotdagi ahamiyati.....	1230
<b>Mahmudov Nurali Komilovich</b>	
Korporativ moliya tizimini rivojlantirishda raqamli moliya vositalari va texnologiyalarning integratsiyasi.....	1241
<b>Xalbekov Ozodbek Xudoykulovich</b>	
The influence of tour interpretation on perceived heritage values: a comparative analysis of tourists with and without guided interpretation at a heritage destination.....	1245
<b>Shokhnigorbegim Juraeva</b>	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida aloqa xizmatlarini rivojlantirish va samaradorligini oshirishning metodologik asoslarini takomillashtirish.....	1252
<b>Xazratov Abror Panjiyevich</b>	
Madaniy meros obyektlari asosida barqaror turizmni rivojlantirish strategiyalari.....	1257
<b>Abriev Zoirjon</b>	
Пути инновационного развития национальной экономики.....	1262
<b>Жураев Тошболта Тухтаевич</b>	
Hududlarda turizmni rivojlantirishda to'siqsiz, barqaror turizmni tashkil etish zarurati.....	1267
<b>Jo'rayeva Nargiza Abduvohidovna</b>	
Application of ifrs in budgetary accounting.....	1272
<b>G. Djambakieva</b>	
Transport xizmatlari sektorining rivojlanishini statistik tahlili: xorazm viloyati misolida.....	1276
<b>Raximov Alisher Ibragimovich</b>	
O'zbekistonda 2024-yil davomida yirik soliq to'lovchilarni soliq ma'murchiligi tahlili.....	1281
<b>Xushatov Nuriddin Maxmatqulovich</b>	
Zamonaviy ta'lim sifatini baholashning nazariy-metodologik asoslari.....	1288
<b>Rahimova Qutlibika Ergashevna</b>	
Chakana va ulgurji savdo korxonalarini faoliyatini rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni baholash.....	1293
<b>Yuldasheva Gulmira</b>	
Zamonaviy axborot tizimlari orqali soliq qarzdorligini undirish mexanizmining takomillashtirish yo'llari.....	1296
<b>Maxmadustov Jalol Maxmadustovich</b>	
Hududlarda pillachilikni rivojlantirishning huquqiy asoslari va imkoniyatlari.....	1303
<b>G'oziyeva Aziza Abdusalomovna</b>	
Korxonaning investitsion jozibadorligi oshirish yo'llari.....	1313
<b>Axtamova Parizod Oybek qizi</b>	
Raqamli texnologiyalar yordamida inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari.....	1319
<b>Adilova Zulfiya Djavdatovna, Shoev Alim Xalmuratovich</b>	



Yog' – moy sanoati korxonalarida soliqlar hisobi va auditi jarayonlarida tahliliy amallardan foydalanish samaradorligini oshirish.....	1327
<b>A'zamova Aziza Olimjon qizi</b>	
Qurilish materiallari ishlab chiqarish faoliyati iqtisodiy samaradorligini oshirishning xorij tajribasi.....	1334
<b>Umirova Gulmira Shodiboy qizi</b>	
Xalqaro moliya-kredit institutlar bilan hamkorlikning iqtisodiy-huquqiy asoslari .....	1343
<b>Qosimov Bobur Sobirovich</b>	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda yengil sanoat eksporti diversifikatsiyasining roli va yo'nalishlari.....	1347
<b>Otamurodov Shavkat Nusratillayevich, Eshqulova Nasiba Normo'minovna</b>	
Система раннего предупреждения о снижении финансовой устойчивости предприятия на основе ключевых показателей эффективности (KPI).....	1359
<b>Тажибаева Кизларгул Ажиниязовна</b>	
Soliq tizimida soliq riskini baholash va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish uslubiyoti.....	1374
<b>Nasimov Ravshanjon Azimovich</b>	
Sanoat korxonalarining innovatsion boshqaruvi tahlili va uning xususiyatlari .....	1383
<b>Sarimsaqov Doniyor Xomidovich</b>	
Surxondaryo viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faol korxonalar va tashkilotlar tahlili .....	1390
<b>Normurodov Alibek Anvar o'g'li</b>	
Mehnat bozori: rivojlanish tendensiyalarining iqtisodiy-statistik tahlili, baholash va istiqbollari.....	1396
<b>Mirzayeva Odina Imomnazar qizi</b>	
Адаптивная модель антикризисных мероприятий, направленных на повышение эффективности управления активами, оптимизацию затрат и реструктуризацию задолженности .....	1402
<b>Tajibayeva Kizlargul Ajiniyazovna</b>	
Xalqaro va ichki turistik bozorlarda o'zbekistonning turistik mahsulotlarini targ'ib qilish mexanizmi .....	1409
<b>Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna</b>	
Tourism infrastructure constraints and service gaps in uzbekistan's visitor economy.....	1412
<b>Kurolov Maksud Obitovich, Xamidjonova Moxinur Xayrulla qizi</b>	
Основные проблемы перехода на МСФО в республике узбекистане .....	1419
<b>Махмудов Жамшед Ашрафович</b>	
Binolar loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishning nazariy va amaliy asoslari.....	1425
<b>Usmonov F.B., Rajabova A.Sh.</b>	



# BINOLAR LOYIHA-SMETA HUJJATLARINI ISHLAB CHIQUISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

Usmonov F.B.

Buxoro davlat texnika universiteti,  
Qurilish muhandisligi kafedrası professori

Rajabova A.Sh.

Buxoro davlat texnika universiteti,  
Qurilish muhandisligi kafedrası magistranti  
E-mail: rajabovaazizaxon@gmail.com  
ORCID: 0009-0006-8754-4159

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada binolarni loyihalash jarayonida smeta hujjatlarini ishlab chiqishning nazariy va amaliy jihatlari o'rganiladi. Qurilish-loyiha hujjatlari tizimi, ularning tarkibi, tuzilishi va ishlab chiqish bosqichlari tahlil qilinadi. Shuningdek, smeta hujjatlari asosida investitsiya hajmi va qurilish xarajatlarini aniqlashdagi usullar yoritiladi. Amaliy misollar orqali ushbu hujjatlarning samarali tashkil etilishi va loyihaning iqtisodiy samaradorligiga ta'siri ko'rsatiladi.

**Kalit so'zlar:** loyiha-smeta hujjatlari, binolarni loyihalash, qurilish smetasi, texnik-iqtisodiy asos, xarajatlar hisoboti.

**Abstract:** This article explores the theoretical and practical foundations of developing design and estimate documentation for building construction. It analyzes the system, structure, and stages of project-estimate documentation. Particular attention is given to methods for determining investment volume and construction costs based on estimate documents. Practical examples demonstrate how efficient organization of such documentation influences the economic efficiency of the project.

**Key words:** design and estimate documentation, building design, construction estimate, feasibility study, cost report.

**Аннотация:** В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты разработки проектно-сметной документации при проектировании зданий. Анализируется система строительной проектной документации, её структура, состав и этапы разработки. Особое внимание уделяется методам определения объема инвестиций и затрат на строительство на основе сметных документов. На примерах показано влияние правильной организации документации на экономическую эффективность проекта.

**Ключевые слова:** проектно-сметная документация, проектирование зданий, строительная смета, технико-экономическое обоснование, отчет о затратах.

## KIRISH

Bugungi kunda respublikamizda innovatsion jarayonlarning iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va sohalorida keng qo'llanilishi, xususan, qurilish sohasining jadal sur'atlar bilan rivojlanishiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan qurilish sohasiga alohida e'tibor qaratilib, bu yo'nalishda bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni<sup>1</sup>, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021–2025-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6119-son Farmoni<sup>2</sup>, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 23-apreldagi "Qurilish sohasidagi normativ hujjatlarni xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 231-son qarori<sup>3</sup> qurilish sohasini rivojlantirish maqsadida qabul qilingan muhim hujjatlar sirasiga kiradi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son <https://lex.uz/docs/-5841063>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 27.11.2020 yildagi PF-6119-son <https://lex.uz/docs/-5130468>

3 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 23.04.2024 yildagi 231-son <https://lex.uz/docs/-6896291>



Zamonaviy qurilish amaliyotida loyiha-smeta hujjatlari eng muhim hujjatlardan biri hisoblanadi. Ular binoni qurishdan avval texnik, iqtisodiy, ekologik va tashkiliy jihatlarni belgilab beruvchi asosiy vosita vazifasini bajaradi. Qurilishning har bir bosqichi — joriy ta'mirlash, kapital ta'mirlash, rekonstruksiya qilish — aynan ushbu hujjatlar asosida tashkil etiladi.

Binoning funksional xususiyatlari, arxitektura va konstruktiv yechimlari, shuningdek, xarajatlar hajmi loyiha-smeta hujjatlarida aniq ko'rsatilgan bo'lishi lozim. Shu sababli, ushbu maqolada loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishning nazariy asoslari, amaliy metodlari va ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri tahlil qilinadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish qurilish muhandisligi va iqtisodiyoti sohasida keng o'rganilayotgan yo'nalishlardan biridir. Bu boradagi ilmiy adabiyotlar ikki asosiy yo'nalishga bo'linadi: birinchisi — nazariy asoslar va me'yoriy hujjatlar, ikkinchisi esa — amaliy hisoblash usullari va dasturiy vositalar.

O'zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, hamda qurilish smetalarini tuzish bo'yicha Shaharsozlik normalari va qoidalari (ShNQ) me'yoriy-uslubiy qo'llanmalari loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishda asosiy huquqiy va texnik asosni tashkil etadi. Ushbu hujjatlar orqali loyiha-smeta materiallarining tuzilmasi, tartibi va ularni tasdiqlash mexanizmlari belgilangan.

Rossiya va xalqaro tajribada GOST R 21.1101–2013 standarti va unga asoslangan adabiyotlar, xususan Malyshev V.A. (2020) tomonidan yozilgan "Проектно-сметная документация: теория и практика" nomli asar, loyiha hujjatlarining strukturasi, rasmiylashtirish tartibi va texnik xatoliklarning oldini olishga oid muhim nazariy bilimlarni beradi.

Shuningdek, zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda smeta hujjatlarini tuzishning iqtisodiy samaradorligi yoritilgan. Smith J. (2019) tomonidan yozilgan "Construction Estimating and Cost Control" nomli asar, ayniqsa xalqaro qurilish sohasida smeta tuzishning iqtisodiy mezonlari va boshqaruv mexanizmlariga urg'u beradi.

Shu bilan birga, BIMsmeta, Smeta.UZ, Autodesk Quantity Takeoff kabi dasturlar bo'yicha mavjud texnik hujjatlar va qo'llanmalar amaliy hisob-kitoblarni avtomatlashtirishda foydalidir. Ushbu dasturiy vositalar nafaqat hisoblash jarayonini tezlashtiradi, balki inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ilmiy tahlil va amaliy kuzatuvlar asosida loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish jarayonlari o'rganildi. Tadqiqotda quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi:

Normativ hujjatlar tahlili.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi (Shaharsozlik kodeksi, me'yoriy hujjatlar) hamda xalqaro standartlar (GOST, ISO, FIDIC) asosida loyiha-smeta hujjatlarining tarkibi, shakllanish bosqichlari va huquqiy asoslari o'rganildi.

Tizimli tahlil usuli.

Loyiha-smeta hujjatlarining strukturasi tahlil qilish orqali ularning o'zaro bog'liqligi, muhim elementlari va tartibga soluvchi funksiyalari aniqlab chiqildi. Qurilishda qo'llanilgan real loyiha hujjatlari, ya'ni binolar uchun tayyorlangan smetalar asosida iqtisodiy tahlillar o'tkazildi. Ularning samaradorlik darajasi aniqlanib, smeta aniqligiga qarab investitsiya muvaffaqiyat ko'rsatkichlari baholandi.

Dasturiy vositalar tahlili.

BIMsmeta, Smeta.UZ va boshqa dasturlar yordamida loyiha-smeta hujjatlarini tuzish imkoniyatlari baholandi. Ularning afzalliklari, kamchiliklari va amaliyotga joriy etish mexanizmlari o'rganildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Binolarni loyihalash va qurilish jarayonida smeta hujjatlarini ishlab chiqish qat'iy ravishda amaldagi qonunchilik va me'yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Ushbu tartiblar O'zbekiston Respublikasi va xalqaro standartlarga asoslangan bo'lib, loyiha-smeta hujjatlarining shakli, mazmuni, tasdiqlash tartibi va yuritilishi uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksida binolarni qurish, loyihalash va foydalanishga topshirishning umumiy huquqiy asoslari belgilab qo'yilgan. Smeta hujjatlari loyiha-smeta hujjatlari paketining ajralmas qismi sifatida tasdiqlangan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari smeta hujjatlarida qanday ko'rsatkichlar bo'lishi, ularni kim va qanday asosda tasdiqlashi kerakligi borasida ko'rsatmalar beradi. Shaharsozlik normalari va qoidalari (ShNQ) binolarning konstruksiyaviy xususiyatlari va xarajat me'yorlarini aniqlashda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.



O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi smeta resurs normalariga yangi qurilish konstruksiyalari va keyingi vaqtlarda qurilishda keng qo'llanilayotgan ish turlarini qo'shimcha ravishda kiritib boradi. So'nggi smeta resurs normativlari asosida smetalar shakllantiriladi.

Binolar uchun ishlab chiqiladigan loyiha-smeta hujjatlari quyidagi asosiy qismlardan iborat:

Loyiha topshirig'i (TT) – buyurtmachi talablariga asoslangan texnik hujjat;

Arxitektura va konstruktiv yechimlar – binoning asosiy tuzilmasi va funksional ko'rsatkichlari;

Smeta hisoboti (shartnoma bahosi) – qurilish materiallari, ish haqi, texnika va boshqa xarajatlarning to'liq ifodasi;

Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar (TIK) – loyiha samaradorligini aniqlovchi parametrlar.

Smeta hujjatlari asosida qurilish xarajatlarini aniq prognoz qilish mumkinligi isbotlangan.

Amaliy tahlillar shuni ko'rsatdiki, puxta ishlab chiqilgan smeta hujjatlari:

- Qurilish jarayonida byudjetdan chetga chiqish holatlarini 10–15 % gacha kamaytiradi;
- Resurs taqsimotining optimal variantini tanlash imkonini beradi;
- Investorlar va moliyaviy tashkilotlar uchun ishonchli moliyaviy prognoz vazifasini bajaradi.

Avtomatlashtirilgan smeta dasturlarining afzalliklari aniqlangan.

GrandSmeta, Smeta.RU, hamda O'zbekistonda keng qo'llanilayotgan ABC-UZ kabi dasturlar tahlil qilingan bo'lib, ular quyidagi ustunliklarga ega ekani aniqlangan:

- Hisoblash tezligi inson mehnatidan 5–10 baravar yuqori;
- Xatolik darajasini minimalga tushiradi ( $\leq 2$  %);
- Yangilanayotgan normativ bazalar bilan integratsiya qilinishi sababli me'yoriy jihatdan doimiy dolzarb hisoblanadi.

Huquqiy va me'yoriy asoslar smeta sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Normativ hujjatlar asosida tayyorlangan smetalar:

- Davlat ekspertizasidan o'tish tezligi yuqori bo'ladi;
- Qurilish muddati va narxiga oid hujjatli asoslarni taqdim etish imkonini beradi;
- Smetada ko'rsatilgan xarajatlar asosida davlat byudjetidan ajratmalar olish imkoniyati oshadi.

Tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlari "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimiga yuklanadi va tegishli bo'limlar orqali tekshiriladi. Tizimda smeta hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish tartibiga to'xtaladigan bo'lsak, masalan, Buxoro viloyatidagi bino loyihasi Samarqand yoki Navoiy viloyatidagi davlat ekspertizasi tomonidan ko'rib chiqilishi mumkin. Bundan maqsad – vaqtni tejash va shaffoflikni ta'minlashdir.

Noto'g'ri yoki yuzaki tuzilgan smeta hujjatlari loyihaning muvaffaqiyatsiz yakunlanishiga olib kelishi mumkin.

Tahlil etilgan amaliy holatlarda noto'g'ri smetalash natijasida:

- Qurilishning kechikishi (30 % gacha),
- Rejalashtirilgan byudjetning ortiqcha sarfi (15–25 %),
- Tugallangan obyektning funksional va iqtisodiy noqulayligi kabi muammolar kuzatilgan.

Binoni loyihalashda loyiha-smeta hujjatlarining sifati va to'g'riligi — investorlar, pudratchilar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun ishonchli manba hisoblanadi. Ushbu hujjatlar faqat moliyaviy xarajatlarni hisoblash emas, balki loyihaning umumiy yo'nalishi, xavfsizlik, funksional qulaylik va iqtisodiy samaradorligini aniqlash imkonini beradi.

O'zbekistonda loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha me'yoriy-huquqiy asoslar mavjud bo'lsa-da, amaliyotda ular bir qator to'siqlarga duch kelmoqda. Ayniqsa, kichik va o'rta loyiha tashkilotlarida zamonaviy dasturlardan foydalanish, loyiha tahlilini chuqur amalga oshirish, smeta narxlarini bozordagi holatga moslashtirish kabi masalalarda sustkashlikka yo'l qo'ymaslik lozim.

BIM texnologiyasi asosida loyihalash bugungi kunda rivojlangan davlatlarda asosiy standartga aylangan. Ushbu texnologiya orqali grafik chizmalar, real hajmlar, xarajatlar va vaqt belgilari avtomatik tarzda shakllantiriladi. Loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlashda arxitektor, konstruktiv muhandis, texnolog, smetachi va injenerlarning bir jamoada ishlashi loyiha sifatini oshiradi. Bu tizim tafovut va xatoliklarni kamaytiradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Binolar uchun loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish — bu faqatgina texnik hujjatlar to'plami emas, balki investitsiya loyahasining asosiy tayanchi, sifatli qurilishga olib boruvchi yo'ldir. Ularning mukammal va zamonaviy shaklda ishlab chiqilishi loyihaning muddat, sifat va qiymat jihatdan muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, qurilish byudjetini aniq belgilashga, resurslardan samarali foydalanishga, qurilish xavflarini kamaytirishga hamda investitsiya jalb qilishda ishonchni oshirishga xizmat qiladi.

Kelgusida loyiha-smeta hujjatlarini tuzishda BIM asosidagi loyihalashni keng joriy etish juda maqsadga muvofiq bo'ladi. Loyihalash tashkilotlari uchun kadrlar malakasini oshirish bo'yicha doimiy o'quvlar tashkil etish ish unumdorligini oshiradi.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni // O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-noyabrdagi PF-6119-sonli Farmoni // O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali. <https://lex.uz/uz/docs/-5130468>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 23-apreldagi 231-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/-6896291>
4. O'zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2023.
5. O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi. SHNK 4.01.01–2020.
6. SHNK 4.01.16–09 – Qurilish bahosini shartnomaviy joriy narxlarda aniqlash qoidalari.
7. "BIM texnologiyalari asosida loyihalash" // TATU ilmiy maqolalar to'plami. – 2022.
8. GrandSmeta dasturi rasmiy qo'llanmasi. – URL: [www.grandsmeta.ru](http://www.grandsmeta.ru)
9. "Loyihalashda zamonaviy yondashuvlar" // Respublika Arxitektura va Qurilish instituti, 2023.
10. ISO 12006 – *Building construction — Organization of information about construction works*.
11. Малышев В.А. *Проектно-сметная документация: теория и практика*. – Москва: Издательство Стройиздат, 2020.
12. Smith, J. *Construction Estimating and Cost Control*. – Wiley Publications, 2019.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 6**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---